

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

NURALIEVA OZODA NORBOEVNA

**O‘ZBEK VA INGLIZ BADIY DISKURSIDA DIALOGIK NUTQNING
PRAGMASTILISTIK MOHIYATI**

10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

UO‘K: 811.512.133.111.808.5.811

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Nuralieva Ozoda Norboevna

О‘zbek va ingliz badiiy diskursida dialogik nutqning pragmastilistik mohiyati 3

Нуралиева Озода Норбоевна

Прагмастилистическая сущность диалогической речи в узбекском и
английском художественном дискурсе..... 23

Nuralieva Ozoda Norboevna

The pragmatic-stylistic essence of dialogic speech in Uzbek and English literary
discourse 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil .83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

NURALIEVA OZODA NORBOEVNA

**O‘ZBEK VA INGLIZ BADIY DISKURSIDA DIALOGIK NUTQNING
PRAGMASTILISTIK MOHIYATI**

10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3541 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.samdchi.uz hamda «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Safarov Shahriyor Safarovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar: **Jo'rayeva Malohat Muhammadovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Yusupova Shoira Botirovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 85-uy. Tel.: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchi.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 85-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil "____" _____ dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A.Yaxshiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

G'.Q.Mirsanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

N.Z.Nasrullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zururati. Jahon tilshunosligida badiiy diskursning struktur tuzilishi, tarkibiy qismlari, mazmuniy xususiyatlari, pragma-diskursiv mohiyati bilan bog‘liq muammolar izchil muhokama qilinmoqda. Matnning mazkur belgilari semantik, stilistik, psixolingvistik, lingvomadaniyatshunoslik sohalari doirasida aniqlanib, tahlilga tortilmoqda. Zamonaviy tilshunoslik fanida muhim o‘rin egallagan antropotsentrik yondashuv turli mualliflar tomonidan yaratilgan matnlarni kommunikativ maqsadni amalga oshirish vositasi nuqtai nazaridan o‘rganish zaruratini tug‘diradi.

Dunyo tilshunoslik markazlarida olamning lisoniy manzarasini qayta yaratish masalasi, bu turdagi lisoniy manzaraning kommunikantlar tomonidan tasavvur qilinishi va ifodalash usullari e‘tiborni jalb qilmoqda. Badiiy diskurs, o‘z navbatida, nafaqat millat dunyoqarashi, balki muallif va personajlarning mental holati, individual qarashlarini aks ettiradi. Shu bois, badiyatga xos diskursiv faoliyatni, mazmunni ifodalovchi vositalar tahlil usullarini takomillashtirish va ularni bevosita amaliyotga joriy qilish dolzarblashib bormoqda. Yangi O‘zbekistonning poydevorini mustahkamlash strategik rejalarining amalga oshirilishi natijasi o‘laroq, mamlakatimizda chet tillarning nazariy asoslarini va amaliy mohiyatini tadqiq qilishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Respublikamizda chet tillarni o‘rganishga e‘tibor davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan bir paytda til tizimining barcha sathlari va ularga oid kategoriyalarni har taraflama o‘rganish va tavsiflash bo‘yicha qator tadqiqotlar bajarilmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar hozirgi zamon tilshunosligi bilan bir qatorda madaniyatlararo aloqa ko‘lamini kengaytirishda muhim rol ni o‘taydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Fan va ma’rifat nafaqat yoshlarni, balki butun bizning jamiyatimizni intellektual va ma’naviy imkoniyatlarini oshirishda muhim ahamiyatga egadir”¹, Demak, ilmiy tadqiqotlar mamlakat rivojining asosiy manbalaridan biridir va bundan tilshunoslik sohasi ham istisno emas. So‘nggi yillarda “milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash hamda targ‘ib etish, xalq og‘zaki ijodiyoti jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish”ga² qaratilgan chora-tadbirlar doirasida ta’lim sohasida yuz berayotgan islohotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xorijiy tillarni nazariy va amaliy jihatdan puxta egallash, xalqlararo munosabatlarni mustahkamlash, ingliz va o‘zbek tillarida nutqiy tuzilmalar diskursiv-pragmatik mazmuni shakllanish jarayoni xususiyatlarini yorituvchi tadqiqotlarni chuqurlashtirish zarurati mavjud.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qarori, PQ-96-son 20.01.2022 yildagi Oliy Malisga Murojati URL. <https://uza.uz/ru/posts/poslanie-prezidenta>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF – 5847 -sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. // Xalq so‘zi, 09.10.2019. № 209 (7439).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning taraqqiy strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini” 2030 yilgacha, rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tili davlat tili sifatida nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda qator boshqa me‘yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu ilmiy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Badiiy diskurs va matnning lisoniy tarkibi, hamda pragmatik xususiyatlari bir qator xorijiy tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan³. Aynan shu yo‘nalishdagi tadqiqotlar o‘zbek tilshunoslari tomonidan ham olib borilmoqda⁴.

So‘nggi yillarda badiiy mazmun ifodasining kognitiv tavsifiga alohida e‘tibor qaralib, olam badiiy manzarasining kategorialashuvi va stilistik konseptuallashuvi bilan bog‘liq masalalar muhokama qilinmoqda⁵.

V. Humboldt, D. Oswell, A. Duranti, N.F. Alefirenko, V.I. Karasik, S. Muminov kabi olimlarning ishlarida muloqot odobi, uning milliy-madaniy

³ Halliday M. *Linguistic Study of Text and Discourse*. – L. – N.Y.: Continuum, 2002. – 256 p.; Schiffrin D. *Approaches to Discourse*. – L.: Blackwell, 2003. – 407 p.; Leech N. *Style in Fiction*. – N-Y.: Longman, 1981. – 402 p.; Verdonk P. *Stylistics*. – Oxford: Oxford University Press, 2002. – 124 p.; Dijk T.A. *Studies in the Pragmatics of Discourse*. – The Hague etc; Mouton, 1981. – 366 p.; Макаров М.Л. *Основы теории дискурса*. – М.: Гнозис, 2003. – 315.; Гальперин И.Р. *Текст как объект лингвистического исследования*. – М.: Наука, 1981. – 138 с.; Богданов В.В. *Речевое общение прагматические и семантические аспекты*. – СПб.: Изд-во СПб. у-та, 1990. – 88 с.; Норман Б.Ю. *Лингвистическая прагматика*. – Минск: Изд-во БГУ, 2009. – 183 с.

⁴Мамажонов А., Abdupattoev M. *Matn nazariyasi*. – Farg‘ona: FarDU, 2016. – 112 b.; Сафаров Ш. *Лингвистика дискурса*. – Челябинск: ЧГИК, 2018. – 315 с.; Yo‘ldoshev M. *Badiiy matn lingvopoetikasi*. – T.: Fan, 2008. – 18 b.; Ashurova D.U., Galiyeva M.R. *Text Linguistics*. – T.: Turon – Iqbol, 2016. – P. 205.; Hakimov M. *O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan dokt.... dissertatsiyasi*. – T. 2001. – 103 b.; Boymirzayeva S.U. *O‘zbek tilida matnning kommunikativ–pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar: Filol.fan dokt..... dissertatsiyasi*. – T., 2010. – 49 b.; Nosirova U. *Poetik matnlarning pragmatik xususiyatlari*. – Farg‘ona: Classic, 2020. – 152 b.; Qurbonova S. *Badiiy matnda shaxs xususiyatlarini ifodalovchi vositalar: ularning pragmatik tadqiqi // Farg‘ona pragmalingvistika maktabi*. – Farg‘ona: FarDU, 2022. – B. 158-221

⁵ Semino E. *A Cognitive stylistics. Analysis to Mind style in Narrative // Cognitive Stylistics*. – Amsterdam: John Benjamins, 2002. – С. 95-122; Stockwell P. *Cognitive Poetics: An Introduction*. – L.: Routledge, 2002. – 44 p.; Молочанова Г.Г. *Когнитивная стилистика и стилистическая типология // Вестник МГУ. Серия 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация, 2002. №3*. – С. 60-70; Ашурова Д.У. *Стилистика текста в парадигме когнитивной лингвистики // Филология масалалари*. – T., 2003. №1. – С. 41-45; Худойберганова Д. *Матннинг антропоцентрик тадқиқи Монография*. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.

xususiyatlari, ijtimoiy–madaniy jihatlari tadqiq qilingan⁶. M. Sell, J. Mey, L. Hickey, J. Verschuren, T. Bloor va boshqa bir qator tadqiqotchilar badiiy matn personajlari nutqini tahlil qilishda moslashuv (adaptation) nazariyasi nuqtai nazaridan yondashuvning mahsuldorligi haqida muhim fikrlarni bayon qilishgan⁷.

Yuqorida qayd qilingan ishlarda muhokama qilingan keng ko‘lamli masalalarga qaramasdan, dialogik nutqning badiiy matn kontekstida voqelanishini ta‘minlovchi pragmatistik omillar va lisoniy tanlovning kontekstga moslashuvi bilan bog‘liq masalalar chog‘ishtirma tilshunoslik nuqtai nazaridan yetarli darajada o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “**Nutqiy tuzilmalarning pragmatik-diskursiv tahlili**” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi badiiy matn personajlari dialogik nutqi voqelanishini ta‘minlovchi omillarni pragmatistik nuqtai nazardan tadqiq qilish hamda ularning lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

badiiy matnda voqelangani dialogik nutqning lisoniy va kommunikativ xususiyatlarini o‘rganishda pragmatistik yondashuvning mahsuldorligini asoslash;

badiiy muloqot jarayonida lisoniy tanlovning kommunikativ maqsadga mos ravishda amalga oshirilishini ta‘minlash faoliyati moslashuv nazariyasi talablariga hozirjavob bo‘lishini dalillash;

badiiy asar personajlari nutqining diskursiv tuzilishi va pragmatik samaraga erishishini ta‘minlovchi omillarni aniqlash;

lisoniy birliklar tanlovi tilning struktur-semantik jihatlaridan tashqari so‘zlovchining ruhiy holati, muloqot vaziyatiga xos zamon-makon munosabatlari kabi ijtimoiy hodisalar nazoratida kechishini isbotlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o‘zbek mualliflar tomonidan yaratilgan badiiy asarlar matnida voqelangani dialogik nutq namunalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek matnlaridagi dialogik nutqlarning diskursiv-semantik va pragmatistik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsifiy, semantik hamda pragmatik va stilistik, diskursiv tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

⁶ Humboldt W. Selected Writings. – L.: Everyman’s Library, 2018. - 686 p.; Oswell D. Culture and Society. – L.: Sage Publications, 2006. - 246 p.; Duranti A. Linguistic Anthropology. – Cambridge: Cambridge University Press, 1997. - 398 p.; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М.: Гнозис, 2004. - 129 с.; Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: ценности – смысловое пространство языка. – М.: Флинта, 2010. - 83 с.; Mo‘minov S. So‘zlashuv odobi. – Farg‘ona.

⁷Sell R.D. Literary Pragmatics. – L.: Routledge, 1991. - 292 p.; Mey J.L. When Voices Clash: A study in Literary Pragmatics. – Berlin: Walter de Gruyter, 1999. - ... 454 p.; Hickey L. The Pragmatics of Style. – L.: Routledge, 1989. - 216 p.; Verschuren J. Understanding Pragmatics. – L.: Edward Arnold Publishers, 1999. - 295 p.; Bloor T., Bloor M. The Functional Analysis of English: A Hallidyan Approach. – Cheltenham: Edward Arnold Publishers, 1995. - 46 p.

badiiy matn tarkibida voqelangan dialogik nutqning lingvofalsafiy asosga ega ontologik va bevosita nutqiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan hamda badiiy matnda aks topadigan gnoseologik belgilari ochib berilgan;

badiiy muloqot jarayonidagi lisoniy tanlov tasvirlanayotgan olam manzarasi, kontekstga muqobil ravishda bajarilishini ushbu tanlovning muloqot vaziyati talabini qondirishi lozimligi bois pragmatik moslashuv nazariyasi doirasida baholash samarasi belgilangan;

personajlar nutqining diskursiv tuzilishi va pragmatik samaraga erishishini ta'minlovchi omillarning bevosita kommunikativ maqsad va muloqot strategiyasi, lisoniy vositalar tanlovi bilan bog'liqligini aniqlash usullari ishlab chiqilgan;

lisoniy birliklar tanlovi tilning sistem-struktur va semantik jihatlari bilan birgalikda, turli muloqot vaziyatida sodir bo'ladigan makon-zamon munosabati muloqot ishtirokchilarining ruhiy-emotsional holati kabi ekstralingvistik hodisalar nazoratida kechishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek badiiy matnda qayd etilgan dialogik tuzilmalarning chog'ishtirma-pragmatik tahlili natijasida aniq ma'lumotlar olingan va badiiy matn tarkibida voqelangan dialogik nutqning lingvofalsafiy asosga ega ontologik va bevosita nutqiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan hamda badiiy matnda aks topadigan gnoseologik belgilari ochib berilgan;

kontekstlar qiyosi asosida ingliz va o'zbek badiiy matnlarida voqelangan dialogik nutq namunalari pragmatik-diskursiv xususiyatlari asoslangan hamda ularda namoyon bo'ladigan obrazlilikning madaniy-lisoniy omillari tavsiflangan;

tadqiq etilayotgan tillar badiiy muloqot namunalari kontekstda voqelanishini ta'minlovchi omillarni pragmatistik tahlil qilish metodikasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilgani, nazariy ma'lumotlarni dalillashda ishonchli ilmiy manbalarga tayangan holda ish olib borilgani, to'plangan misollar ilmiy nuqtai nazardan sinalgan usullar asosida tavsiflangani, erishilgan natijalar va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati ushbu tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan tahlil usullarini qo'llash orqali pragmatik, lingvomadaniyatshunoslik hamda tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarini rivojiga qo'shadigan hissasi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ilmiy ishda erishilgan natijalardan oliy o'quv yurtlarida matn tahlili, pragmatika, stilistika, diskurs tahlili, tarjimashunoslik sohalarida ma'ruzalar o'qishda, maxsus kurslar o'tishda, yangi turkumdagi o'quv adabiyotlarini yaratishda, shuningdek, amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek va ingliz badiiy matn tarkibida voqelangan dialogik nutqning lingvofalsafiy asosga ega ontologik va bevosita nutqiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan hamda badiiy matnda aks

topadigan gnoseologik belgilari tahlil qilish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar va amaliy tavsiyalar asosida xulosalaridan I-204-4-5 “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” amaliy loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 9-sentabrdagi 381/02-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, lisoniy tanlov tasvirlanayotgan olam manzarasi, kontekstga muqobil ravishda bajarilishini pragmatik moslashuv nazariyasi doirasida o‘rganishning samarasi belgilangan;

badiiy muloqot jarayonidagi lisoniy tanlov tasvirlanayotgan olam manzarasi, kontekstga muqobil ravishda bajarilishini ushbu tanlovning muloqot vaziyati talabini qondirishi lozimligi bois pragmatik moslashuv nazariyasi doirasida baholash samarasi belgilangan tavsiyalardan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 9-sentabrdagi 384/02-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz tilini amaliy o‘rganishga yo‘naltirilgan o‘quv adabiytlarining yangi variantlari yaratilgan;

personajlar nutqining diskursiv tuzilishi va pragmatik samaraga erishishini ta’minlovchi omillarning bevosita kommunikativ maqsad va muloqot strategiyasi, lisoniy vositalar tanlovi bilan bog‘liqligini aniqlash usullariga oid xulosalaridan Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-1 UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL “Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 9-sentabrdagi 380/02-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada, o‘quv jarayonini takomillashtirishga oid xalqaro loyihalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

lisoniy birliklar tanlovi tilning sistem-struktur va semantik jihatlari bilan birgalikda, turli muloqot vaziyatida sodir bo‘ladigan makon-zamon munosabati muloqot ishtirokchilarining ruhiy-emotsional holati kabi ekstralingvistik hodisalar nazoratida kechishiga oid xulosalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining “Assalom Samarqand” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 9-sentabrdagi 01.07/298-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, tomoshabin va tinglovchilarni bugungi kunda xorijiy tillarni o‘rganish hamda terminologik birliklarning shakllanishi, muloqot matnida faollashuv xususiyatlari bilan tanishtirish amaliyoti muayyan darajada takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan xorijiy nashrlarda 5 ta maqola, mahalliy respublika jurnallarida 8 ta va boshqa xorijiy va mahalliy nashrlarda 7 ta maqola e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, ishning xulosasi, foydalanilgan ilmiy va badiiy asarlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 129 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Badiiy matnning pragma-diskursiv xususiyatlari”** deb nomlangan birinchi bobida badiiy matn tahliliga pragmatik yondashuv bilan bog'liq muammolar muhokama qilinib, pragmatik mo'ljalning voqelanishi hamda pragmatistik tahlilda moslashuv nazariyasini tatbiq qilish masalalari yoritilgan.

O'tgan asrning oxirgi o'n yilliklarida pragmatika sohasida erishilgan yutuqlar stilistik tahlil imkoniyatlarini kengaytirdi. Shu davrga kelib, badiiy matn diskursiv tuzilishining xususiyatlarini to'liq stilistik tahlili uchun pragmalingsvistika sohasida shakllangan va sinovdan o'tgan tahlil usullaridan foydalanish zarurligi ravshanlashdi.

To'g'ri, ba'zilar stilistikani adabiy tanqid sohasiga yaqin hisoblab, pragmatikani, lingvistik va falsafiy ahamiyatga ega bo'lganligi uchun, adabiyotdan uzoqlashtirish niyatida bo'ldilar⁸. Ammo keyingi tadqiqotlarda pragmatikaning adabiyot, badiiy asar tahlili uchun nazariy asos xizmatini o'tay olishi o'z tasdig'ini topdi.

Pragmatistika mustaqil tadqiqot sohasi sifatida o'tgan asrning 80–yillarida shakllandi. Niderlandiyalik tilshunos T.A. van Deyk pragmatik adabiyotshunoslik (literary pragmatics) tushunchasini iste'molga kiritdi va adabiyotshunoslik pragmatik g'oyalardan foydalanishga moyil ekanligini asoslab berdi⁹. M. Pratt nutqiy aktlar nazariyasini badiiy matn tahliliga joriy qilishga urunib ko'rdi¹⁰.

Nihoyat, 1991-yilda Literary Pragmatics¹¹ monografiyasining chop etilishi pragmatistikaning mustaqil yo'nalish sifatida shakllanib ulgurganidan guvohlik beradi.

Pragmatistika yo'nalishi vakillari badiiy matnlar tahlili jarayonida xayoliy va haqiqiy olam manzaralarining o'zaro muqobilligi muammosi bilan qiziqayotib, ushbu turdagi matnlarning kommunikativ maqomini belgilashga urunmoqdalar. Til tizimining inson tajribasi bilan bog'liqligini e'tirof etadigan bo'lsak, badiiy matnning inson faoliyati, bajaradigan harakatlari davomi, mahsuli ekanligini qayd etgan bo'lamiz. Zotan, badiiy matnning yaratilishi eng avvalo lisoniy tafakkur

⁸ Хованская З.И. Принципы анализа художественной речи и литературного произведения. – Саратов: Изд-во СГУ, 1975. – 431 с.

⁹ Van Dijk T.A. Pragmatics of Language and Literature. – North Holland: Amsterdam, 1976. – P. 22-57.

¹⁰ Pratt M. Toward A Speech Act Theory of Literary Discourse. – Bloomington: Indiana University Press, 1977. – 236 p.

¹¹ Sell R. D. Literary Pragmatics. – L.: Routledge, 1991. – 292 p.

jarayonidir. Mazkur jarayonda tafakkurning inson faoliyati bilan munosabati yaqqol namoyon bo‘ladi. Matn bilan tanishish va unga baho berish mazmuni aniqlashga yo‘naltirilgan yanada mukammalroq jarayondir. Shu asnoda, badiiy matnning pragmatistik nuqtai nazardan tahlil qilish qilish uning yaratilishi va idroki bilan bog‘liq qator masalalar muhokamasini taqozo etadi.

Badiiy diskurs muloqot tizimining o‘ziga xos butunligi ekanligi uslubshunoslar tomonidan qayd etilgan. Mazkur butunlikning xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- badiiy matnda til faqat muloqot vositasi bo‘lib qolmasdan, balki matn mazmunidan o‘rin oladigan konseptual axborotni ham ifodalash uchun xizmat qiladi;

- badiiy matnda muallifning estetik g‘oyasi tasavvurdagi olam doirasida voqelanadi;

- ushbu turdagi matnda muallifning sodir bo‘layotgan hodisalar, tasvirlanayotgan narsalarga nisbatan munosabati namoyon bo‘ladi;

- badiiy matnda yetkazilayotgan axborotning uzatuvchi va qabul qiluvchisi muallif va o‘quvchi bo‘lishi bilan bir qatorda, shu vazifalarni asar personajlari ham bajarishi mumkin.

Demak, badiiy matni diskurs maqomida tavsiflash uni ma‘lum ijtimoiy muhit bilan bog‘liq jihatlarini inobatga olishni talab qiladi. Bu xildagi bog‘liqlik har qanday turdagi diskursning yaratish va idrok etishning muhim shartidir. Zero, tildan muloqot jarayonida foydalanish va uni tushunish badiyatni anglashning asosida turadi. Har qanday holatda ham unutmaslik kerakki, badiiy diskurs ikki yo‘nalishda kechadi. Birinchisi muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi dialog bo‘lsa, ikkinchisi esa matn ichida, ya‘ni asar qahramonlari o‘rtasidagi muloqotdir. Ushbu sathdagi muloqot tahlilining muhimligi, birinchidan, badiiy asarning katta qismini personajlar nutqi tashkil qilishida namoyon bo‘lsa, ikkinchidan, ushbu turdagi nutq vositasida muallifning voqelikka, sodir bo‘layotgan hodisalarga nisbatan munosabati voqelanadi.

Pragmalingsistik tadqiq obyekti haqida so‘z borayotganida ushbu yo‘nalishni umumiy tilshunoslikning ma‘lum bir sohasi sifatida qarash kerakmi yoki uni ko‘pqirrali tahlil olib boruvchi amaliy tilshunoslik doirasida qoldirish ma‘qulmi, degan savolning tug‘ilishi tabiiy. Fikrimizcha pragmalingsistikaning turli jihatlarini bir–biridan keskin ajratib qarash muammo tug‘diradi. Shuning uchun J. Verschurenning “Understanding Pragmatics” asarida bildirilgan nuqtai nazar istiqbolli tuyuladi. Olim pragmatikani “lisoniy hodisalarni ularning turli nutqiy xatti–harakat shakllarida qo‘llanishining kognitiv, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini” o‘rganish maqsadini ko‘zlovchi fan sifatida baholaydi¹².

J. Verschuren va boshqa tadqiqotchilarning fikriga qo‘shilgan holda pragmatikani lisoniy faoliyatning turli jihatlarini, diskursning tarkibiy bo‘laklari bilan birgalikda uning kognitiv, ijtimoiy–madaniy vazifalarni o‘rganuvchi soha sifatida e‘tirof etish lozim, deb hisoblaymiz. Pragmatikaga bunday keng ko‘lamli

¹² Verschuren J. Understanding Pragmatics. – L.: Edward Arnold Publishers, 1999. – 295 p.

yondashuv tildan foydalanish bilan bog‘liq xatti–harakatlarning tub mohiyatini anglash va tavsiflashga zamin yaratishga ishonish darkor.

Ma’lumki, an’anaviy pragmalingsvistikada asosiy e’tibor so‘zlovchining kommunikativ maqsadiga qaratilib, tinglovchining ma’no-mazmun shakllanishidagi ishtirokiga unchalik ahamiyat berilmaydi. J. Vershurin boshqalardan farqli ravishda bunda tinglovchining roli alohida ekanligini ta’kidlab, nutqiy tuzilma mazmunini tushunish dinamik xarakterdagi tafakkur faoliyati ekanligini qayd etadi. Muloqot jarayonida tinglovchi mazmun yaralishiga hissa qo‘shadigan faol ishtirokchidir. U so‘zlovchining kommunikativ maqsadiga mos keladigan ma’noni shakllantiradi. Bu esa kommunikativ maqsad amalga oshishi uchun tinglovchining nutqiy tuzilmani to‘g‘ri tushunishi muhimligidan darak beradi. Shu bois, J. Vershurin kontekst tushunchasini sharhlar ekan so‘zlovchi va axborotni qabul qiluvchi shaxslarning o‘zaro munosabati, nutqiy harakatini vaziyatga moslashtirish qobiliyatini eslatib o‘tishni lozim ko‘radi.

Shu asnoda, J. Vershuren kontekstni harakatdagi muloqot jarayoni bilan bog‘laydi va uning ushbu jarayon davomida o‘zgarib turishini qayd etadi. Olim, shuningdek, kontekst unsurlari muloqot jarayonida o‘zaro moslashishi zarurligini ham aytib o‘tadi. Bu esa, moslashish harakatini ta’minlovchi omillarni tahlil qilish talabini qo‘yadi.

Tildan foydalanish jarayonida faollashadigan lisoniy hodisalar kognitiv, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarga ega ushbu inobatga olinishi pragmalingsvistik tadqiqotlarni yangi yo‘nalishga undaydi. J. Vershurenning “Pragmatics as a Theory of Linguistic Adaptation” (1987) nomli kitobida asoslangan va keyinchalik “Understanding Pragmatics” kitobida rivojlantirilgan lisoniy adaptatsiya (moslashuv) nazariyasi shunday yangi yo‘nalishga turtki berdi.

Pragmalingsvistik hodisa sifatida tildan foydalanish faoliyati matn tadqiqining markazidan o‘rin egallaydi. Moslashish tamoyilining inobatga olinishi pragmatik tahlilning to‘rtta yo‘nalishini belgilab beradi. Bularda quyidagilar e’tiborga olinadi: 1) moslashuvning kontekst bilan bog‘liq jihatlari; 2) til tuzilmalarining moslashuv obyektini vazifasini bajarishi; 3) moslashuvning rivojlanish bosqichlari; 4) moslashuv harakatining onglilik darajasi.

Mazkur holatlarning o‘rganilishi tildan foydalanishning pragmatik tabiati tahlilida muhim ahamiyat kasb etadi.

Turli sathlar doirasidagi tanlovlar bir–biri bilan bog‘liq holda sodir bo‘ladi va o‘zaro moslashadi. Jumladan, diskurs mavzusi va lug‘at birliklari tanlovi o‘zaro bog‘liq holda kechganidek, muloqot maqsadi va nutqiy aktlar tanlovi biri–ikkinchisini taqozo etadi. Gap qurilishining tanlovi ham ifodalanayotgan propozitsiya tuzilishi bilan bog‘liq. Shuning uchun ham har bir tanlov o‘zaro moslashadigan tanlovlar hosilasi sifatida tavsiflanishi mumkin.

Boshqa pragmatik nazariyalardan farqli ravishda, moslashuv nazariyasi nutqiy faoliyatni to‘lig‘icha qoida va tamoyillar qamroviga qamrab qo‘ymaydi. Muloqot bosqichlarining barchasida ham hamkorlik tamoyili o‘z kuchini bir xilda namoyish eta olmaydi. Aksincha, tildan foydalanuvchilar lisoniy tanlov amallarini ba’zan tasodifan, mexanik ravishda ham bajarishga moyildirlar. Buni, ayniqsa,

salomlashish, hol–ahvol so‘rash, xayrlashish kabi fatik muloqot nutqiy aklari voqelanishida tez-tez kuzatish mumkin.

“**Lisoniy tanlov va til birliklarining moslashuvi**” deb nomlangan ikkinchi bobda badiiy dialogning tuzilishi, tarkibiy qismlari yoritilib, dialogik nutqning uslubiy xususiyatlari hamda lisoniy tanlovning sintaktik-semantik mutanosibligini ta’minlovchi omillar aniqlangan.

Ba’zilar kundalik muloqot va badiiy voqelangan dialogni unchalik farqlashni istamaydilar. Biroq bunday xulosadan yiroq turadiganlar ham yo‘q emas. Tadqiqotchilar kundalik muloqotda hech kim xuddi roman, drama yoki kinofilm personajlaridek so‘zlashmasligini qachonlardir qayd etib ulgurishgan¹³. Ularning nutqiy harakatlari va uslublari bir xil bo‘lganida hayratlanarli holat hosil bo‘lishi muqarrar. Ammo yozma va og‘zaki muloqotning farqlovchi ko‘rsatkichlarni aniqlash o‘ziga xos qiyinchilik tug‘diradi.

Badiiy diskursning kundalik muloqotdan farqi shundaki, badiyatga erishish maqsadini ko‘zlayotgan muallif og‘zaki so‘zlashuvdan ma’lum darajada masofani saqlashga harakat qiladi. Ammo bu badiiy dialogda yuqorida sanab o‘tilgan diskursiv ko‘rsatkichlar, unsurlar tamoman uchramaydi, degani emas. Biroq ularning qo‘llanishi ma’lum bir maqsad bilan bog‘liq bo‘lib, alohida qiymatga egadir. Badiiy dialog, xuddi asarning o‘zi kabi, janr talablariga mos ravishda shakllantiriladi. Zotan, badiyatda til oddiygina muloqot yoki ifoda vositasi sifatida qo‘llanmasdan, balki san’at namunasi yaratish quroli ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Badiiy asar tili tildan foydalanishning tamoman boshqa biri turi bo‘lmasdan, balki kundalik diskursda qo‘llaniladigan tilning kengaygan variantidir¹⁴.

Shu bois, muhokama qilinayotgan variantlarning o‘xshash jihatlarini izlash ma’qulroq tuyuladi. Kundalik diskursiv faoliyat xususiyatlarini tahlil qiluvchi pragmatik tadqiq amallarini badiiy dialog tadqiqiga jalb qilish imkoni mavjud.

Misol tariqasida ingliz va o‘zbek romanlaridan olingan quyidagi parchalarni tahlil qilib ko‘ramiz:

Oh! My dear Mr. Bennet, we have had a most excellent ball..... Jane was so admired. Everybody said how well she looked. Mr. Bringley thought her quite beautiful, I was so vexed to see him stand up with her.... I am quite delighted with him. He is so excessively hand some!

Ushbu parchada uchraydigan qat’iyat va intensivlikka ishora qiluvchi “most excellent”, “so admired”, “how well”, “quite beautiful”, “so vexed”, “quite delighted”, “so excessively handsome” birliklari personajning hissiyotli, tanqidli, ma’lumoti sayoz shaxs ekanligidan darak beradi. Ushbu birliklarining qo‘llanishi, shuningdek, Bennet xonim berayotgan baho haqiqatga unchalik mos emasligining ko‘rsatkichidir. Endi Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi quyidagi satrlarni o‘qiymiz: “... *Men siyoh baxt dunyog‘a kelmagan bo‘lsam edi, sizga bunchalik kulfatlar, munchalik anduhlar ham yo‘q edi. Shuning uchun siz*

¹³ Abercrombie D. Studies in Phonetics and Linguistics. – L.: Oxford University Press, 1965. – P. 151.

¹⁴ Leech G., Short M. Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose. - L.: Longman, 1981. – 402 p.

tangridan so‘rang kim, tezroq men mash‘umani mavh etib, sizga uch-to‘rt kun tinchlik bersin, onajon. Sizni bu holda ko‘rishka va o‘z tilagim yo‘lida sizni qurbon etishka ortiq toqatim bitdi. Tashlandiq bu qizingiz, qo‘lma – qo‘l yuruvchi bu o‘yinchoq qizingiz kimu, sizdek bir mehribon onani qon yig‘latish kim? Yig‘lamangiz, ona. Sizning to‘kib kelgan ko‘z yoshlaringizning bir tomchisiga ham bu tashlandiq qizingiz arziyas, siz otamg‘a maning rizolig‘imni tashvishlanmay bildiraveringiz. Ul ham kishilar oldida bu baxtsiz qizining ta‘nasiga qolmasin....”

Keltirilgan nutqiy parchadan Abdulla Qodiriyning asar qahramoni Kumushga nisbatan munosabati ne qadar ijobiy ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Inchunin, o‘z onasini ulug‘lash, qadrlash niyatidagi Kumush hatto o‘zini “siyoh baxt”, “ma‘shuma”, “tashlandiq bu qizingiz”, “bu o‘yinchoq qizingiz”, “bu baxtsiz qizingiz” deya zaminga urishdan ham toymaydi. Ona oldidagi bunday ta‘zim Kumushning onasi kamtarin, mehribon, oqila insonligidan darak beradi.

Pragmatika tildan foydalanish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan sohasi ekanligini qayd etadigan bo‘lsak, ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar natijalari stilistik nuqtai nazardan muhim ekanligini e‘tirof etishga majburmiz. “Biz, - deb yozadi, Elizabet Blek, - nisbatan noturg‘un ma‘nolar olamidamiz va o‘quvchi qandaydir passiv qabul qiluvchi emas, balki faol talqin qiluvchi vazifasini bajarishi kerak”¹⁵. Demak, yozma diskurs va badiiy dialogning mazmuni shakllanishi va talqin qilinishida asosiy rolni bajaradigan omillarni ajratish pragmatistik tahlilning muhim vazifalaridandir.

Jumladan, M.Sparkning “Not to Disturb” romanida hozirgi zamon shaklining keng miqyosda qo‘llanishi voqealarning sodir bo‘lishi va ularning bayoni bir paytda kechishi bilan bog‘liq.

Ma‘lumki, hozirgi zamon shakli doimiy takrorlanib turadigan harakatlarni ifodalash uchun qo‘llanishi mumkin (masalan: John walks to work).

Badiiy diskursda esa ushbu shakldan o‘tgan zamonda boshlanib, kelgusi sari davom etayotgan harakatlarni ifodalash uchun foydalaniladi.

Masalan:

“Wanda looks out of window” I told Martin York. “She sees spies standing at the corner of the road. She sees spies in the grocer shop, following her”.

Bu yerda asar personajining nutqida qochoqning ichki holati tasvirlanmoqda (uning xayolida kimdir uni doimiy ravishda ta‘qib qilayotgandek).

Badiiy diskurs tarkibida mavjud bo‘lgan axborot real voqelik bilan bog‘liq bo‘lishi shart emas, u asosan muallifning ijodiy tafakkuri mahsulidir. Shu sabab, badiiy matn doirasida tasvirlanayotgan voqea – hodisalar ham to‘qima zamonda kechayotgan bo‘lish ehtimoli kuchli. Bu esa zamon shakllari transpozitsiyasiga zamin hozirlaydi hamda grammatik shakllarining o‘zaro munosabatga kirishishini ta‘minlaydi.

Qiyoslang:

“Ko‘ramiz, qanaqa qizning boshini aylantirib yurganini! – deb o‘ylaydi u yumshoq to‘shalgan polda sassiz u yoq – bu yoqqa yurarkan, ko‘nglida qassoskor bir lazzat sezib. – Nimasiga uchibdi qiz sho‘rlik bu landavurning! Uylanganini

¹⁵ Black E. Pragmatic Stylistics. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006. – 166 p.

aytmagan. *Shirin gap bilan aldagan-da, yigit o'lgur! Yaxshiyam razvod bermaganim! Bilaman, bari bir yarashamiz. Basharasini ko'rishga toqatim yo'q. Ammo baxtsiz bo'lib chapak cholib qolaverarkanman-u, u kishi ayshini surarmishmi? Shundoq kunlarni boshiga solayki! Shundoq sharmandasini chiqarayki!*"

Yozuvchi O'tkir Hoshimovning "Qalbingga quloq sol" nomli qissasidan olingan ushbu parcha asar personaji Azizaning nutqidan namuna bo'lib, unda o'tgan va kelasi zamon shakllarining ma'nosi o'zaro yaqinlashayotganini ko'ramiz. Bunday ma'no ko'chimi ko'proq personajlar ichki kechinmalari ifodalanishida yuzaga kelishi odatiy holdir.

Badiiy diskursda muallif ko'pincha personajlar xarakterini tavsiflash uchun lisoniy tanlovning u yoki bu ko'rinishiga murojaat qilishi kuzatiladi. O'quvchilar personajlar nutqiy harakatlariga asoslangan holda ularning mental holati yoki harakatlari haqida xulosa chiqaradi. Bular qatoriga personajlar shaxsiyati, maqsadi, ishonchi, istaklari, ruhiyati kabi kognitiv unsurlar kiradi.

O'zbek yozuvchisi Nazar Eshonqulning "Qora kitob" nomli qissasidan olingan quyidagi parchani o'qiymiz:


"Birodar, yaxshi odam bo'lsangiz kerak, ko'z'laringiz aytib turibdi. Siz ham charxi dunyoning ko'p nadomatlarini boshdan kechirganga o'xshaysiz. Negadir siz bilan juda suhbatlashgim kelayapti, to'g'risini aytsam, hozir kimgadir ko'nglimni bo'shatmasam, "tars" yorilib ketadigandayman. Ichganga o'xshaysiz deysizmi? Nega sekin aytasiz, baqirib ayting. Ichganman, to'yib ichganman, besh yildan beri to'yib ichganman. Buni yuzimga qarasangiz, darrov sezasiz. Kuygan charm deysiz. Yuzim emas yuragim kuyib ketgan, kuygan kovushga o'xshab qolgan. O'zim ham misli g'ijimlab tashlangan qog'ozman. Hayot meni g'ijimlab tashladi, birodar, g'ijimlab-g'ijimlab, so'ng mana shu xiyobonga otib yubordi.

Eng avvalo, personajning nutqi uning ruhiy holatini aks ettirishini qayd etmoq kerak. Uning oldingi hayotidan pushaymonligi ko'rinib turgan yuzini g'amdan "kuygan charm"ga o'xshayotgan so'zlovchi keyinroq aslida yuragi kuyganligini va uning "kuygan kovushga" o'xshab qolganini aytmoqda. Hayot uni misli qog'ozdek "g'ijimlab-g'ijimlab", so'ng otib yuborgan.

Fikrni voqelantirish bilan bog'liq lisoniy tanlov o'z mohiyati bilan kommunikativ startegiyadir. So'zlovchi lison, variantlar tanlovini bajarayotib, o'zi ko'zlayotgan maqsadga erishishni rejalashtiradi. Lisoniy tanlov tildan foydalanuvchining ongli faoliyati mahsuli bo'lib, kognitiv harakatlar jarayoni kechishiga katta hissa qo'shadi. Muloqot ishtirokchilari lisoniy tanlovni amalga oshirish vositasida kommunikativ samaraga erishishni tezlashtiradilar.

Badiiy asarlar tarkibidagi dialoglarda lisoniy tanlov faoliyati kechishi jarayonini quyidagi 1-rasmda tasvirlangan.

1-rasmdan ma'lum bo'ladiki, muallif yoki personaj ko'zlangan maqsadga erishish va muloqot samarasini ta'minlash uchun lisoniy vositalarni lingvistik qurshov, umum qabul qilingan qoidalar va ruhiy vaziyatga mos ravishda tanlaydi. Shuningdek, pragmatistik natijaga erishish uchun so'zlovchi tomonidan mazmunning to'g'ri anglashinishi ham muhimdir.



1-rasm. Lisoniy tanlov jarayoni

Uslubni shakllantiruvchi lisoniy va nolisoniy omillarning o‘zaro bog‘liqlikda faollashuvi muallif ko‘zlayotgan pragmatik maqsadga erishishga imkon yaratadi deb hisoblaymiz. Jumladan, sintaktik tuzilma badiiy asar matnida mazmun–mavzuni voqelantirish va badiiy g‘oyani ochib berish vositasidir. Sintaksis, shuningdek, personajlar ruhiy holati, ongli tafakkur harakatlarini namoyon qiluvchi vositaga aylanadi. Shuning uchun ham yozuvchilar badiiy asarlardagi dialogik tuzilmalarni shakllantirishda turli ko‘rinishdagi sintaktik qurilmalardan foydalanadilar. Bu esa personajlar nutqining dinamik rivojini ta‘minlaydi.

Badiiy nutq tarkibida qisqa va cho‘ziq gaplarning bir paytda qo‘llanishi ba‘zan emfatik maqsad sari yo‘naltiriladi va stilistik maqsadga erishish uchun xizmat qiladi. D. Lourens o‘z qahramonlarining kuchli va o‘zgaruvchan hissiyotlarini tavsiflashda ko‘proq sodda gaplarga murojaat qiladi. Uning *Sons and Lovers* romani sintaktik moslashuv holatlarini birmuncha yorqin aks ettiradi.

Sintaktik tuzilmalar uning uslubida turli shaxslararo munosabatlar va tafakkurdagi kechinmalarni voqelantirish vositasiga aylanadi. Adabiyotshunos Rojer Fauler aytganidek, “Bunday ekspressiv vositalar til tizimida mavjud va har bir shaxs ularni o‘z shaxsiyati, bajarayotgan vazifasi va ehtiyojiga bog‘liq holda tanlaydi”. Tanlov albatta, ongli ravishda amalga oshiriladi va shuning bilan birgalikda, ba‘zi lisoniy tuzilmalar o‘z-o‘zidan maqsadga muvofiq kelishi ham mumkin.

Bundan tashqari, badiiy asar personajlari nutqida qo‘llanilayotgan sintaktik tuzilmalar rasmiy va norasmiy ko‘rinishga ega ekanligi bilan ham farqlanadi. Ushbu ko‘rinishdagi gaplarning faollashuvi asosan muallif maqsadi va personajlar xarakterini tasvirlash talabiga mos keladi.

“Notiq” hikoyasining qahramoni shu darajada kaltafahmki, xotini undan birgina o‘pich kutayotgannini ham fahmlamasdan, rasimyatchilikdan voz kecholmaydi. Qiyoslang:

- *O‘pichmi? Hech bo‘lmasa shuni to‘g‘ri ayta qolsangiz nima bo‘lar edi! – dedi (xotini).*
- *Qanday, – dedi notiq hayron bo‘lib, – bitta o‘pichmi deb nutqimni buzaymi? (A. Qahhor. Muhabbat, 2019: 78).*

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Lisoniy tanlov va pragmatik–kommunikativ strategiyaning moslashuvi”** deb nomlanib, unda dialogik nutqda

lisoniy birliklar tanlovining ko‘zlanayotgan maqsad hamda pragmatik–kommunikativ strategiyalar faollashuvi bilan bog‘liq masalalar tahlil qilingan.

Badiiy asar muallifi, til birliklaridan tashqari, diskursiv va kommunikativ strategiya tanlovini amalga oshiradi. Ushbu strategiyalar tanlovi personajlarning moddiy, ijtimoiy va mental olamiga mos kelishi shart. Boshqacha aytganda, lisoniy birliklar tanlovi lingvistik voqelik, ijtimoiy me‘yorlar va muallif yoki personajning ruhiy kechinmalari bilan bog‘liq. Zero, har bir shaxs muloqotga ma‘lum bir maqsad ila ishtirok etadi va xuddi shu maqsad til vositalari va kommunikativ strategiya tanlovini nazorat qiladi.

Tildan foydalanish faqat lisoniy unsurlar tanlovidan iborat bo‘lmasdan, nutqiy tuzilmalarni shakllantirish tamoyillari tanlovini ham taqozo etadi¹⁶. Mazkur tamoyillar so‘zlovchi nutqiy harakatining vaziyatga muqobilligi hamda mazmuniy butunligini ta‘minlovchi strategiyalar va qoidalarda aks topadi. Vershurin uch xil tamoyillarni ajratadi: 1) gap qolipidagi nutqiy tuzilmani hosil qiluvchi; 2) gapdan yuqori ko‘rinishda tuzilmalarni hosil qiluvchi; 3) nutqiy klasterlarni shakllantiruvchi. Ushbu turdagi tamoyillarning barchasi mazmun tuzilishini ta‘minlaydi. Masalan, birinchi turdagisi oldindan ma‘lum va yangi axborotni yetkazishda ishtirok etib, tema-remamunosabatini voqelantiradi. Ikkinchi turdagi tamoyil tatbiqida diskurs mavzusining rivoji namoyon bo‘ladi. Nihoyat, uchinchi turdagi tamoyillar esa asosan muloqot matni qismlarining o‘zaro mazmuniy bog‘liqligini ta‘minlovchi strategiyalardan iboratdir. Mavzu nazorati va uning o‘zgarishi muloqot rivojini ta‘minlovchi asosiy tamoyil ekanligi barchaga ma‘lum.

Mavzu kontekst va umumiy bilimga oid axborotni biriktiradigan zahira, chunki ularda muloqot uchun zarur bo‘lgan ma‘lumot jamlanadi. Biron bir mavzu doirasida suhbat boshlanganida kontekstga murojaat qilinadi, zero suhbatdoshlar u yoki bu haqida gapirish aynan shu vaziyatda mumkinligi yoki mumkin emasligini bilishlari zarur. Tanlangan mavzu hamkorlik tamoyiliga mos kelishi va aniq, rost hamda yetarlicha axboriylik xususiyatlariga ega bo‘lishi talab qilinadi.

